

RAQAMLI IQTISODIYOT ASOSLARI VA O'ZBEKISTONNING USHBU SOHADAGI USTUVOR YO'NALISHLARI

Ma'murov Baxtiyor

PhD, TDIU huzuridagi ilmiy-tadqiqot markazi

Jahonda yuz berayotgan global iqtisodiy o'zgarishlar va raqobat borasidagi jiddiy kurashlar milliy korxonalarning samaradorligi, moliyaviy holati, ularning salohiyati va rivojlantirish borasidagi masalalarni o'ta muhim, hal etilishi zarur bo'lgan muammolardan biri ekanligini ko'rsatmoqda. Global iqtisodiyotdagi tebranishlar davrida investitsiya, integratsiya, innovatsiya, migratsiya, xalqaro savdo, turizm hamda axborot kommunikatsiya sohalarining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning o'sish darajasiga o'z ta'sirini ko'rsatayotgan omillardan biridir.

O'zbekiston ham bugungi xalqaro hamjamiyatning va global iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Buning tasdig'i sifatida xorij mamlakatlari bilan barcha sohalardagi aloqalarimizni yildan-yilga kengayib borayotganida ko'rishimiz mumkin.

Shuning uchun O'zbekiston rivojlangan yetakchi davlatlar tajribasi asosida milliy iqtisodiyot tarmoq va sohalarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, hududlar iqtisodiyoti tarkibini takomillashrirish bo'yicha xalqaro hamkorlik dasturlarini bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda.

Raqamli iqtisodiyot atamasi hozirgi kunda jamiyatimiz kundalik hayotiga kirib kelgan va ommalashayotgan tushunchalardan biri hisoblanadi. Mazkur atama dastlab 1995 yilda AQSh Massachuset universitetining axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassis, dasturchi Nikolas Negroponte tomonidan amaliyotga kiritilib, uni atomlar harakatidan bitlar harakatiga o'tish metaforasi shaklida ifodalagan.

Hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda Raqamli iqtisodiyot atamasi mutaxassislar, tadqiqotchi va olimlarning faoliyati turidan kelib chiqib turlicha talqin qilinmoqda. Tadqiqotlarimizni ko'rsatishicha, ushbu atamaga iqtisodiy nuqtai nazardan quyidagi yondashuvlar mavjudligini alohida ta'kidlashimiz mumkin. Raqamli iqtisodiyot bu:

real borliqni o'zida ifodalovchi virtual muhit;

raqamli texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etish;

internet texnologiyalariga asoslangan jamiyat;

iqtisodiyot sohasining yangi bir ko'rinishi;

onlayn-savdo va savdo maydonchalari, veb-iqtisodiyot;

axborotlarni qayta ishslash, saqlash uzatish borasidagi yangi usullar generatsiyasi, axborot kommunikatsiyasi va raqamli texnologiyalariga asoslangan iqtisodiyot;

yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellarini yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ushbu iqtisodiy kategoriya ijtimoiy-iqtisodiy, moliya-soliq, pul-kredit, siyosiy-madaniy, madaniy-ma'rifiy munosabatlardagi aloqalarga raqamli texnologiyalarni qo'llash yordamida amalga oshiruvchi yangi tizim

sifatida qarashimiz mumkin. Raqamli iqtisodiyotning asosiy belgilari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida yuqori darajada avtomatlashtirilganlik, elektron hujjat almashinuvini sifatlari amalga oshirishning mavjudligi, moliya, soliq, bojxona, tijorat banklari, buxgalteriya, auditorlik va boshqaruv tizimlarining o'zaro elektron integratsiyalashuvi, ma'lumotlarning elektron bazalari, CRM (mijozlar bilan o'zaro munosabat tizimi)ning mavjudligi hamda turli xildagi korporativ tarmoqlarni yagona elektron platforma asosida birlashuvidir. Hozirda raqamli iqtisodiyot tushunchasini butun dunyo siyosatchilari, iqtisodchilari, jurnalistlari, tadbirkorlari va boshqa soha vakillari ham o'z faoliyatlarida qo'llamoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni, 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni, 2017-yil 8-avgustdagagi "Hududlarni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3182-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" VMQ-373-son qarori va hududlar iqtisodiyoti tarkibini takomillashtirishga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlar mamlakatda raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantrish bo'yicha muhim vazifalarni belgilab berdi. Jumladan, raqamli iqtisodiyot sohasidagi ustuvor yo'nalishlar sifatida quyidagilar belgilandi:

raqamli infratuzilmalarni zamонавиј талаблар асосида модернизација килиш;

саноат тармоqlarida mahsulotlar sifati va raqobatbardoshligini ta'minlash hamda samaradorilikni oshirish bo'yicha texnologiyalarni qo'llash orqali "Raqamli ishlab chiqarish"ni yo'lga qo'yish;

raqamli texnologiyalar va platformalar yaratish hamda raqamli xizmatlar ko'rsatish sohasida maksimal darajada kichik va o'rta korxonalar tashkil etish hamda samarali faoliyatini ta'minlash;

davlat, tadbirkorlar va fuqarolarga ma'lumotlarni saqlash va qayta ishslash bo'yicha foydalanish qulay, barqaror, xavfsiz va iqtisodiy samarali xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlaydigan ma'lumotlarni qayta ishslash markazlari yaratish;

hokimiyat, tadbirkorlar va fuqarolar ehtiyojlarini qondirish uchun ma'lumotlar bilan ishslashning raqamli platformalarini joriy etish;

naqd pulsiz (elektron) to'lovlar, masofadan foydalanish va bank-moliya sohasidagi faoliyatning boshqa elektron shakllari tizimlariga to'liq o'tish;

elektron to'lov vositalarining jahon to'lov tizimlari bilan integratsiyasini ta'minlash;

axborot texnologiyalari sohasida innovatsion faoliyatni qo'llabquvvatlash uchun texnoparklar, biznes-xablar, ilmiy-texnologik klasterlar va kovorking-markazlar, venchur jamg'armalarning barqaror o'sishini ta'minlash va boshqalar.

Mazkur vazifalarni amalga oshirilishi kelajakda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va uning faoliyat ko'rsatishi uchun muhim ahamiyatga ega

bo'ladi. Belgilangan vazifalarni hal etilishi tarkibida fan sig'imi yuqori bo'lgan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va eksport qiladigan mamlakatlar qatoridan joy olishga imkoniyat beradi. Bu esa milliy iqtisodiyotimizga samarali menejment tizimini joriy etish, turmush sifatini oshirish, jahon xom-ashyo, texnologik va oziq-ovqat bozorlari kon'yukturasiga bog'liqlikdan xalos bo'llishga, elektron tijorat va onlayn savdo hajmini oshirishga olib keladi. Natijada raqamli iqtisodiyotga o'tish O'zbekiston uchun quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

aholi, biznes, davlat boshqaruvi organlari orasidagi o'zaro munosabatlar, xizmat ko'rsatish tezlashadi va shaffofligi ta'minlanadi;

doimiy ravishda ishonchli, sifatli va tezkor ma'lumotlarga ega bo'llish masalasi hal etiladi;

ishlab chiqarish sifat va tezkorlik jihatdan o'sadi;

"raqamli ishlab chiqarish" evaziga yangi turdagি mahsulotlar va xizmatlar paydo bo'ladi;

yashirin iqtisodiyot ko'lami keskin kamayib, qora bozorga barham beriladi;

boshqaruvi, sanoat ishlab chiqarish hamda barcha sohalarda shaffoflik ta'minlanishi va inson aralashuvining maksimal darajada kamayishi hisobiga korruptsiya darajasi kamayadi;

yalpi ichki mahsulot va yalpi hududiy mahsulot hajmi oshadi.

"Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish kontseptsiyasiga muvofiq 2025-yilga borib YaIMda AKT ulushini 5,0% ga, 2030-yilda esa 10% gacha oshirishga erishiladi.

Xulosa sifatida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'lini tanlagan davlatlarda axborot texnologiyalari sohasida va umuman, elektron tijorat hamda hujjatlar aylanmasi sohasida yangi yo'naliishlarni ochib beradi. Jamiyatning raqamli texnologiyalar tomon "burilishi"ga butun jahon internet tarmog'i va sifatli aloqaning rivojlanishi sabab bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Gary Pillar (2021) *Digital Transformation and Its Impact on Industries*.

Домакур, О., & Маъмуроў, Б. (2023). Влияние процесса цифровой трансформации на развитие постиндустриального общества. *Nashrlar*, 1(2), 497–501. Retrieved from <https://e-itt.uz/index.php/editions/article/view/419>

Кадиров, А., Ахмедиева, А., & Маъмуроў, Б. (2023). Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётни ривожлантириши ўйналишилари. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahsil*, 1(3), 183–190. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss3-pp183-190>

Князев В.А. (2020) Цифровая экономика: теоретические аспекты и практика реализации в России. М.: НИУ ВШЭ.

Маъмуроў Б.Х. (2016) Государственная поддержка инновационной активности системы предпринимательства //Технологии информационного общества. – С. 318-319.

Маъмуроў Б.Х. (2020) Цифровая трансформация в экономике Узбекистана //Big Data and Advanced Analytics. – №. 6-2. – С. 181-187.

Маъмуроў, Б. (2020). Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётни ривожлантиришининг концептуал асослари ва хориж тажрибаси. *Economics and Education*, (4), 38–43. https://doi.org/10.55439/ECED/vol_iss4/a41

Маъмуроғ, Б. (2023). Ҳудудларда рақамли иқтисодиётни ривожлантириши стратегияси ва истиқбонлари. *Nashrlar*, 1(1), 326–329. <https://doi.org/10.60078/2023-voll-iss1-pp326-329>

Маъмуроғ, Б. Х. Цифровая трансформация в экономике Узбекистана / Б. Х. Маъмуроғ // *BIG DATA and Advanced Analytics = BIG DATA и анализ высокого уровня: сб. материалов VI Междунар. науч.-практ. конф.*, Минск, 20-21 мая 2020 года: в 3 ч. Ч. 2 / редкол.: В. А. Богуши [и др.]. – Минск : Бестпринт, 2020. – С. 181–187.

Маъмуроғ, Б., & Мирзаахмедов, Н. (2023). Уникальные черты, характерные для процесса цифровой трансформации экономики региона. *Издания*, 1(2), 327–330. извлечено от <https://e-itt.uz/index.php/editions/article/view/440>

THE IMPORTANCE OF REDUCING TAX LIABILITIES IN FURTHER DEVELOPMENT OF THE ECONOMY IN UZBEKISTAN

Hakimov Ulug'bek

*Doctor of philosophy (PhD) in economical sciences
Kimyo International university in tashkent*

As a result of the reforms implemented today, wide opportunities are being created for business entities operating in our country. In particular, consistent efforts were made to simplify business operations, reduce the tax burden, create a convenient financing system and infrastructure for the implementation of new projects, and ensure property rights. By dividing business entities into micro, small, medium and large categories, and districts and cities into 5 categories, a system of targeted support for entrepreneurship was established. [1]

By our government, business activities in the country are wide in the end of support, the tax sector, including the digitalization of tax administration in increasing tax revenues, the introduction of mechanisms for the use of artificial intelligence information systems, is confident that it will make a positive contribution to the country's economic stability in the future. As we all know, more than 80 percent of our state budget revenues are generated by taxes. Payment of taxes by taxpayers in the specified period and amount serves to finance part of the costs of the measures implemented by the state. From this point of view, it is important that taxes are received in full and on time. This, in turn, imposes a responsible task not only on taxpayers, but also on tax authorities in ensuring that taxes are paid to the budget on time, including reducing tax arrears.

A number of foreign and domestic scientists have researched the reasons for the emergence of tax debt and some issues of their reduction as priorities for improving the tax administration in the country. In particular, the foreign scientist Michael Brostek (2009), who conducted scientific research on this issue, points out the following factors in his research to increase the efficiency of tax debt collection:

- reducing the tax burden while preventing the accumulation of tax arrears in the country will lead to a reduction in future tax arrears.;
- the strategy of collection of unpaid taxes and fees will give a positive result only during the specified period. [2]